KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL



2025

2025-yil, 11-SON

KASB-HUNAR TA’LIMI

Профессиональное образование
Professonal education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal

2025-yil, 11-son

Muassislar:
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV
Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay’ati:
M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO‘RAYEV,
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV,
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida 2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro‘yxatga olinib, 0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori bilan Pedagogika fanlari bo‘yicha dessertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani Universitet ko‘chasi, 2-uy
Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas’ul
H.Sirojidinov

Sahifalovchi:
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.
Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi va egasiga qaytarilmaydi.
Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Kasb-hunar ta’limi” jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 25.12.2025-yil.
Bichimi 60x84 1/8
Bosma tabog‘i 10. Adadi 60 nusxa.
Buyurtma “PROFIEDUPRESS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg`ali tumani, Yangi Sirg`ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Rustamova Sh.O. Tadqiqiy pedagogika fani bo‘yicha kompetensiyalarni rivojlantirishda multimodal yondashuv 3
Jo'rayeva D.R. Til va adabiyot darslarida muammoli ta’lim asosida pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik mexanizmlari 8
Xaqiqatbekov Z.Sh. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar va ularni bartaraf etish mexanizmlari 13
Xomidjonov A.O. Pedagogik texnologiyalar nazariyasining shakllanishi va rivoji (global tajriba hamda o‘zbekiston amaliyoti) 19
Shirmatova G. Texnologik ta’lim mutaxasislarnining konstruktorlik kompetensiyalarini zamonaviy texnologiyalar vositasida takomillashti rish.....24
USAROVA M.O. Alaliyali bolalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirishning neyrokognitiv va multimodal texnologiyalari 28
Xakimova Y.T., Madumarov A.A. Aralash ta’limning mazmuni, modellari va didaktik tamoyillari 34
Usmonova G.Q. Ingliz tili ta`limida o`qish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy tamoyillari 38
Mirsaidova M. Oliy ta’limda amaliyotida kommunikativ yondashuvdan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili 42
Abduvaliev X.A. Darsdan tashqari sport faoliyatida raqamli tahlil texnologiyalarining qo‘llanilishi 46
Бекторов О.Ё. Ўсмир футболчиларнинг майдондаги тактик фикр-лашларини ўрганиш ва ривожлантириш 50
Kosimov R.A. Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy meros obyektlaridan foydalanish texnologiyalari 55
Umarova R.U. Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari 59
Rustamova D.T., Sultonova G.F. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishning zamonaviy metodlari 64
Umarova G.B. Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda matematik savodxonlikni rivojlantirish yo‘llari 68
Usmonova R.B. Oliy ta’lim muassasalarida jahon adabiyoti vositasida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tamoyillari 73
Abdiyeva Sh.N. O'quvchilar muloqotini rivojlantirishda didaktik o’yinlardan foydalanish 77
Olimova N.Q., Nazirova R.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari 83
Baqoyev N.A. Yapon tilida gapirish ko'nikmalarini o'rgatishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati 88
Mardov S.X. Grafik fanlarni o‘qitishda bim texnologiyalari integratsiyasi: Innovatsion tajriba va natijalar 94
Ismatov J.A. Geografiya ta’limi samaradorligini oshirishda didaktik ta’minotning ahamiyati 100
Umarova G.B., Akbarova D.U. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishda interfaol usullardan foydalanishning ilmiy-asosiy tamoyillari 104
Atajanov O.Y. Raqamli ta’lim muhitida VR va simulyatsiya texnologiyalarining pedagogik mohiyati 109
Pardaboyeva D.N. Texnikum o‘quvchilarini iqtisodiy ta’limga yo‘naltirishning didaktik asoslari 113
Asranbayeva M.X. Gerontopedagogika tamoyillari asosida pedagogik jarayonlarni loyihalashning nazariy-metodologik asoslari 118
Umarova G.B., Muratova Z.J. Bo‘lgusi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli pedagogik kompetentligini shakllantirish ...123
Norqulov B.X. Virtual darslar orqali ingliz tilini o‘qitishda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik va pedagogik asoslari 127
Yusupov E.X. Raqamli simulyatsiyalar yordamida fizikaning optika bo‘limini o‘qitish texnologiyasi 131
Mamadaliyev X.U., Badridinov N.X., Abdumutalipova B.A. Classic Ethernet va IEEE 802.3: Kadr tuzilishi va funktsiyalari 134
Sidikova Z.M. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini tarbiyalashda xalq og’zaki ijodining o'rni 138
Xoldarova I.V. Xomidova R. Oila–mahalla–maktab hamkorligida “yaxshi xulq–odob” tarbiyasining innovatsion usullari 143

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JAHON ADABIYOTI VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI

USMONOVA RUZIXON BOZOROVNA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim dargohlarida jahon adabiyoti fanining roli, talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tamoyillari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, g‘oya, mafkura, pedagog faoliyati.

Аннотация. В статье рассматривается роль учебной дисциплины Мировая литература в высших образовательных учреждениях, а также принципы воспитания студентов в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: национальные и общечеловеческие ценности, идея, идеология, деятельность педагога.

Annotation. The article discusses the role of the subject World Literature in higher educational institutions and examines the principles of educating students in the spirit of national and universal human values.

Keywords: national and universal human values, idea, ideology, teacher’s activity.

Hozirgi globallashuv sharoitida, axborot texnologiyalarining tez sur’atda taraqqiy etishi, xususan, internet tizimining har bir xonadonga kirib borishi bir qator ijobiy jihatlar bilan birga turli ko‘rinishdagi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqdaki, yoshlarda ularga qarshi immunitetni shakllantirish dolzarb muammo sanaladi. Shu bois ta’lim tizimida adabiyot tarixini o‘rganish barobarida yoshlarninig ma'naviy dunyosini boyitish, yuksak umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini oshirishni talab etiladi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy talablar asosida jahon adabiyoti asarlarini o‘rganish maqsadga muvofiq. Jahon adabiy ta’limida ijodkorlik, faollik, yaratuvchanlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil faoliyat olib borish kabi konseptual masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’limning vazifasi talabalarni kasbiy, huquqiy, milliy, ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy va madaniy jihatdan tarbiyalashdan iborat. Xalqaro ta’lim andozalariga moslikning ta’minlanishi ta’lim mazmuniga ma’naviy-ma’rifiy jihatlar ham kiritilishini talab qiladi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bundan keyingi bosqichlari jamiyatga global miqyosda fikrlay oladigan, turli xil siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlarda o‘z yo‘nalishini topa oladigan, taraqqiyparvar g‘oyalar va mafkura bilan qurollangan yetuk shaxslar yetkazib berilishini taqozo etadi. Bunday shaxslarning tayyorlanishida esa, oliy ta’lim jarayoni yetakchi va hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish muhim omili hisoblanadi.

Odamlar hayotga, tabiat va jamiyatga, o‘z-o‘ziga, kelajak va o‘tmishga, biron konkret voqeaga munosabatini belgilashda ma’lum mezonlardan, me’yorlar va baholardan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, muayyan qadriyatlar bilan taqqoslab, baho beradi va munosabatda bo‘ladi. Qadriyatlar har bir shaxsning kamolotida muhim o‘rin egallaydi.

Jamiyatimizda ma’naviy qadriyatlarning negizini tashkil etayotgan milliy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Ma’naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning yoshlar ma’naviy kamolotiga ta’siri haqidagi fikrlarni Al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Bobur asarlaridan ham ko‘plab keltirish mumkin.

Ma’rifatparvar olimlar Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy va boshqalar yoshlar ongiga ma’rifat, madaniyat, milliy onglilik, milliy til, milliy urf-odat va umuminsoniy ma’rifiy bilimlarni olib kirishga harakat qilganlar . Qadriyatlar, ularning asosiy shakllari va xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish yurtimiz mustaqilligining hozirgi davrida eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Davlatimiz taraqqiyotida umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish umummilliy, ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar tarzida, dolzarb muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Shu boisdan bo‘lajak pedagoglarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar vositasida tarbiyalash orqali milliy ruhda tarbiyalash tadqiqotimizning asosiy konsepsiyasini tashkil etadi.

Mamlakatimiz olimlari, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, ma’naviyat masalalariga e’tibor qaratish, yoshlarni milliy meros ruhida tarbiyalash masalalarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, E.Yusupov, X.Shayxova, J.Tulenov, Q.Nazarov, O.Tohirov, S.Otamurodov, A.Jalolov asarlarida o‘tmish ajdodlarimiz ma’naviy merosiga tayangan holda qadriyatlarning milliy jihatlariga ko‘proq e’tibor berilgan. Ular qadriyatlarning milliy va umuminsoniy jihatlarini tadqiq qilgan.

Bo‘lajak pedagoglarni milliy ruhda tarbiyalashda jahon adabiyoti asarlarini tahlil qilish va qiyoslash samara beradi. Oliy ta’lim jarayonida talabalarni jahon adabiyoti bilan tanishtirishda muayyan tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq. Ularga quyida to‘xtalib o‘tamiz.



2.3.1-rasm. Jahon adabiyoti vositasida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tamoyillari

1. Tizimlilik tamoyili. Badiiy asar va ijtimoiy hayot hodisalarining umumiy aloqadorligini tasavvur qilish hamda o‘zlashtirish, turli vazifalarni hal etishni ta’minlaydi. Talabalar uchun yaratilgan qulay va erkin sharoit bilimlarni o‘zlashtirish samapali kechishiga xizmat qiladi.

2. Ta’limning milliy yo‘naltirilganligi. Mazkur tamoyil ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan o‘zaro uyg‘unligi, milliy-madaniy meros namunalari, milliy qadriyatlarga tayanilishini, shuningdek, “O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati”ning hurmat qilinishini bildiradi.

3. Ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi. Bu tamoyil o‘qitish va ta’lim jarayonlarining shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilganligini, ta’lim davrida unda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, talabada milliy ruhni tarbiyalashda uning ongiga yangi bilimlarni singdirish, mavjud bilimlarni boyitish va mustahkamlash zarurligini anglatadi.

4. Integrativlik tamoyili. Ushbu tamoyil darslarda faoliyat turlari, o‘quv materiallarining o‘zapo bir-biriga uyg‘unlashuvi ta’minlanadi, o‘zaro ta’sipini o‘zida aks ettiradi. Integrativlik butun pedagogik japayonda talabalarning turli xil faoliyati birlashtiriladi. Ular faoliyatni ongli tashkil etishga sabab bo‘ladi hamda talabalarni o‘zini-o‘zi tarbiyalashni tartibga soladi, mavjud me’yorlar doirasida harakatlanishiga sabab bo‘ladi

5. Munosabatlarda shaxs manfaati ustuvorligi tamoyili. O‘qituvchining jamoani boshqarishda shaxsni jamoada shakllanishiga qay darajada e’tibor qaratganligiga bog‘liq. Bu munosabatlar obyektiv ravishda qadriyatli xususiyatga ega bo‘lishi, ya’ni jamoa a’zolari bilan muloqotda o‘zaro hurmat va mas’uliyat bilan yondasha olishi yoki jamoada shaxslararo munosabatlarda salbiy to‘qnashuvlar sodir bo‘lishining oldini olish maqsadida barqaror muhitni barpo etish masalariga alohida e’tibor qaratilishi ta’kidlanadi. Pedagog tomonidan bunday faoliyat to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, talabalarda shaxsda shu jumladan, mas’uliyatni namoyon bo‘lishida muammolar paydo bo‘ladi.

6. Tabiiylikka moslashish tamoyili. Mazkur tamoyilda talabalar zarur nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi va amaliy jihatdan mustahkamlanishi, shuningdek, talabalarning ichki imkoniyatlari va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olinishi bilan izohlanadi.

7. Ko‘pvariantlilik tamoyili. Dars jarayonida o‘quv topshiriqlari talabalarning o‘zlashtirish darajasiga qarab shakllantiriladi. Amaliyot davomida bilimlar tatbiq etilsa, uning muhim ekanligi aniq bo‘ladi va kasbiy sifatlar ichida muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar o‘quv jarayoniga barqaror muhitni barpo etish masalalariga alohida e’tibor qaratilishi ta’kidlanadi. Talabalarning ichki holatini sezish qobiliyati, hamdardlik ko‘rsatish kabi harakatlarga ahamiyat berishi kerak. Pedagog tomonidan bunday faoliyat to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, rivojlanayotgan shaxsda shu jumladan, ijodiylik namoyon bo‘lishida muammolar paydo bo‘ladi. Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillar talabalarda erkin fikrlash, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy hodisalarga shaxsiy munosabatini ifodalashga imkon beradi. Bu esa, ularda milliy g‘urur va iftixor shakllanishiga zamin yaratadi.

Qadimgi yunon mifologiyasi yerda hayotning paydo bo‘lishini, tabiatdagi hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga bo‘lgan urinishi sifatida, inson o‘z atrof-muhitidagi o‘rnini aniqlashga ojiz bo‘lgan davrda paydo bo‘lgan edi. Antik davr madaniyatining, jumladan, yunon mifologiyasining jahon xalqlari taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri beqiyosdir. Yunon xalqining miflari umumbashariy madaniyatning asoslaridan biri bo‘lib, u hozirgi zamon kishisining tasavvuri va tafakkuri tarziga chuqur kirib borgan.

Mazkur asarlar bilan tanishgach,

talabalarda milliy qahramonlar, ularning insoniy sifatlari haqidagi tasavvurlar rivojlanadi. Barcha xalqlarning adabiyoti singari Yunon adabiyoti ham og‘zaki xalq ijodi zaminida paydo bo‘lgan. Yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo‘lsa ham, shularga asosan qadimda yunon xalqining anchagina boy og‘zaki adabiyoti bo‘lganligini aniqlash mumkin. Ibtidoiy jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi afsona va asotirlar yig‘indisi qadimgi yunon mifologiyasi tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1 kitob. – T.: Meros, 1993.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, 1996.
3. O‘rta Osiyo xalqlari hurfikrliligi tarixidan. – T.: Fan, 1990.
4. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: Fan, 1983.
5. Yusupov E. Inson kamolining ma’naviy asoslari.- T.:Universitet, 1998;
6. E.Yusupov Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni-T.:Toshkent texnika universiteti, 1995;
7. Shayxova X. Inson va uning ma’naviy dunyosi. -T.: O‘zbekiston ziyolilari ilmiy-ma’rifiy uyushmasi. 1993;
8. Nazarov Q. Aksiologiya. (Kadriyatlar falsafasi.) - T.:Akademiya, 2011;
9. Tohirov O. Komillik-yetuklik timsoli. // Muloqot, 1999, 3-son;
10. Yo‘ldoshev F., Haydarov O. Ma’naviy meros va yoshlar tarbiyasi. // Guliston, 1999, 5-son;
11. Ahmedova X. Demokratik jamiyatda mafkura va yoshlar muammosi. // Ijtimoiy fikr, 2000, 1-2 son;
12. Otamurodov S. Talaba yoshlarining milliy o‘zlikni anglashi.